

**ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARINI O'QUV
JARAYONIGA TADBIQ ETISH (QISHLOQ XO'JALIGI
MUHANDISLIK ASOSLARI FANI MISOLIDA)**

Keldiyorov Rafiq Normurodovich

*Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti "Qishloq xo'jaligida
innovatsion texnika va texnologiyalar" kafedrasida assestanti.*

E mail: rafiqkeldiyorov1991@gmail.com

Tuxliyev Azamat Mingboyevich

*Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti "Qishloq xo'jaligida
innovatsion texnika va texnologiyalar" kafedrasida stajyor-o'qituvchisi.*

Annotatsiya: Zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonining unumdorligini oshirish barobarida o'quvchilarda erkin fikrlash, bilimga chanqoqlik, Vatanga mehr-muhabbat, insonparvarlik tuyg'ularini shakllantiradi. Dars jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanish imkoniyati o'quvchilarning shaxs xususiyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: Pedagogik texnologiyalar, ta'lim, "Aqliy hujum", ta'lim sifati, pedogog xodim, axborot texnologiyalari, o'quv-materiallari.

Kun sayin rivojlangan mustaqil mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, ta'lim sohasini yangi sifat bosqichiga ko'tarishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish va faol foydalanish orqali ta'lim samaradorligini oshirish bugungi kundagi o'zining ijobiy yechimini topayotgan muhim masalalardan biridir. Pedogog xodimlarning asosiy maqsadlaridan biri har bir talabaga rejalashtirilgan o'quv-materiallarini yetkazib berish va uni o'zlashtirish darajasini oshirishga erishishdan iborat.

Qishloq xo'jaligi muhandislik asoslari fanining asosiy vazifalari:

- respublika iqtisodiyotida agrar sohaning o'rni va uni barqaror rivojlantirishda qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish muhandisining vazifasi va unga qo'yiladigan talablar bilan birga, bakalavr darajasida

o'rgatiladigan bilimlarning zarurligi va ularni o'zlashtirish kelajakda yetuk mutaxassis bo'lishning asosi ekanligini talabalarga yetkazish;

- qishloq xo'jaligini rivojlantirishga qaratilgan Prezident Qarorlari, Farmonlari va Hukumat qarorlarini o'rni va ahamiyatini talabalarga tushuntirib borish;

- qishloq xo'jalik texnikalarining bugungi holati, respublika qishloq xo'jaligining taraqqiyot yo'li, va kelajak istiqbollari haqida talabalarning bilim saviyasini oshirish;

- agrar soha tarmoqlarida, qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish texnikalari va muhandislarning mahsulot ishlab chiqarishdagi o'rning muhimligini talabalarning tafakkuriga singdirish hisoblanadi.

Talabalar zamonaviy pedagogik texnologiyalar orqali bilim olish mobaynida qishloq xo'jaligi sohadagi muammolarga mukammal texnik yechimlar topishga harakat qilish bilan bir vaqtda, dunyo hamjamiyatidagi muammo, ilg'or texnologiya va texnikalarni o'rganib, yangi texnologiya va texnikalarni yaratadigan mutaxassis bo'lib yetishadi.

Ta'lim jarayonining samadorligi zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan izchil va samarali foydalanish orqali amalga oshiriladi. Ta'lim sohasida bu kabi islohotlarni amalga oshirish pedagoglar zimmasiga ulkan mas'uliyatli vazifani yuklaydi ya'ni bugungi kun pedagogi zamon talablariga to'liq javob bera olishi shart.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ikki turga ajratish mumkin:

1.Ta'lim texnologiyalari: "Aqliy hujum", "Tarmoqlash", "Labirint", "Charxpalak", "Muloqot", "Loyiha", "Bahs munozara va musobaqa", "Dumaloq stol" kabi texnologiyalar kiradi.

2.Tarbiya texnologiyalari: Kuzatish, baxslashish, ishontirish, jamoaviy ijodiy ishlar, "Tanqid qilishni o'rgating", "Kurator va jamoa" kabi texnologiyalar kiradi.

Ta'lim-tarbiya tizimida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish zaruriyatining mohiyatini quyidagicha ifodalash mumkin: Demak, pedagogik texnologiyalarning markaziy muammosi talaba shaxsini rivojlantirish

orqali ta'lim maqsadiga erishishni ta'minlashdan iborat. Ana shu nuqtayi nazardan qaraganda, «Pedagogik texnologiyalar» fanining asosiy maqsadi kasb ta'limi yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan talabalarni fanni o'rganishda qo'llanadigan ta'lim-ning zamonaviy texnologiyalari bilan tanishtirish va kelajakda o'z faoliyatlarida interaktiv usullar qo'llashni o'rgatishdir.

Pedagogik texnologiyalarning vazifalari – pedagog o'qituvchilarni zamonaviy pedagogik texnologiyalarning mohiyatidan xabardor qilish hamda ularni maxsus fanlar asoslarini o'qitishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar jarayonini noan'anaviy shakllarda tashkil etishga, ta'lim jarayonini mukammal modul asosida loyihalashga erishish, ta'lim jarayonini loyihalash texnologiyasidan oqilona foydalana olish ko'nikma va malakalariga ega bo'lishga, ta'lim oluvchilar tomonidan nazariy bilimlarning puxta, chuqur o'zlashtirilishi va ularda amaliy ko'nikma va malakalar hosil bo'lishining kafolati bo'la olishga o'rgatishdan iborat.

“Pedagogik texnologiyalar” ta'lim tarbiya sohasida sifat ko'rsatkichiga va yuksak samaradorlikka erishish, o'quv jarayonini takomillashtirish maqsadidan kelib chiqib, ijtimoiy gumanitar fanlar majmuyi maxsus fanlarni o'qitish metodikasi, nazariyasi va amaliyotining barcha sohalari bilan o'zaro bog'liq bo'lgan o'qitish shakllari, usullari, vositalari bilan fanlar aro o'zaro birikib, yagona majmua tarzida uzviy aloqada ish olib boradi.

Jamiyatni rivojlantirish va uzluksiz ta'limning yagona tizimini yaratish bilan birga ta'lim jarayonini doimiy ravishda takomillashtirish yurtimizda ta'limning o'ziga xos xususiyatidir. Mamlakatdagi maktab islohoti ta'lim mazmunini hozirgi ilmiy bilim darajasiga muvofiqlashtirishga, barcha o'quv ishlari samaradorligini oshirishga va o'quvchilarni axborot jamiyatiga o'tish sharoitida faoliyatga tayyorlashga qaratilgan. Shu sababli, axborot texnologiyalari ta'lim mazmunining ajralmas qisimiga, o'quv jarayonini optimallashtirish va samaradorligini oshirish vositasiga aylanmoqda, shuningdek, ta'limni rivojlantirishning ko'plab tamoyillarini amalga oshirishga hissa qo'shmoqda.

1. R.Mavlonova, O.To'raeva, K.Holiqberdiev "Pedagogika". -Toshkent: "O'qituvchi", 2001.
2. B.M.Xudayarov., B.P.Shaymardanov., K.D.Astanakulov. Q.O.Shavazov "Qishloq xo'jaligi muhandislik asoslari" Toshkent: 2020.
3. N.N.Azizxo'jaeva "Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat".- Toshkent: TDPU, 2003.
4. A.R.Xodjabaev, I.Xusanov "Kasb ta'limi metodologiyasi". O'quv qo'llanma. – Toshkent, "Aloqachi" , 2007.
5. D.Tojiboeva, A.Yo'ldoshev "Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi". Darslik. – Toshkent, "Aloqachi", 2009.
6. Internet ma'lumotlari:
 - www.ziyonet.uz
 - www.arxiv.uz
 - www.wikipedia.com